



KUZGI BUG'DOY DON HOSILI STRUKTURASI

Akmalova Feruzaxon Furqatjon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Nurmatova Dilnovoz Xayatillo qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada kuzgi bug'doy navlarining sifatini oshirish yo'llari uning vegetatsiya davri, o'g'itlar bilan oziqlantirishning boshqadagi don soniga ta'siri, kuzgi bug'doyni iqlimga va tuproqqa bog'liq holda hosil olinishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Kuzgi bug'doy, ang'iz, tuproq holati, boshqadagi don, sug'orish me'yori, Turkiston, ekish muddati.

Kirish

Kuzgi bug'doy yuqori sifatli hosilni shakllanishiga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Buni vegetatsiya davri davomida o'simlikni o'sishida va vegetativ hamda generativ organlarni shakllanish jarayonida kuzatish mumkin.

G'alila ekinlarining biologik hosilini asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar:

- ✓ maydon birligidagi o'simliklar soni. bitta o'simlikdagi mahsuldor poyalar soni.
- ✓ maydon birligidagi boshqalar soni.
- ✓ boshqadagi don soni.
- ✓ 1000 ta don vazni.

Ma'dan o'g'itlar bilan oziqlantirish boshqadagi don soniga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, azot boshqoq shakllanishiga va shakllanayotgan davrda yetishmasa, boshqadagi don soni kamayadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, chillaki navida birinchi variantida ya'ni azotli qo'llanilmaganda kuzgi bug'doyni boshqoq uzunligi o'rtacha 7,8 sm bo'lgan bo'lsa, gektariga azot-180 kg 4 ta muddatda qo'llanilganda boshqoq uzunligi 8,5 sm ni tashkil qildi, keyingi o'g'it me'yori azot-180 kg 5 ta muddatda gektariga qo'llanilganda esa 9,3 sm bulganligi kuzatildi. Polovchanka navida ham xuddi shunday qonuniyat qayd etildi. Kuzgi bug'doyni yana bir hosil elementlaridan biri boshqadagi don soni bo'lib, bunda birinchi variantida azotli o'g'itlar qo'llanilmaganda 38,8 donani tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchi variantda 40,6 donani tashkil qildi. Ushbu hisob kitoblar natijalarida ham eng ko'p don soni 42,6 dona boshqoq uzunligiga mos ravishda azot 5 ta muddatda qo'llanilgan variantda aniqlandi. Bir boshqadagi don og'irligi kuzgi bug'doyni yana asosiy hosil ko'rsatkichlaridan biri 1000 dona don og'irligi bo'lib, bunda ham yuqoridagi qonuniyatlar takrorlanganligi, ya'ni eng kam 1000 dona don og'irligi 1-variantda 38,5 grammni tashkil qildi.

Ma'lumotlardan shuni aniqlandiki, tuproqdagi ozuqa elementlari yetarli bo'lganda hosil elementlari yuqori bo'lar ekan.

Kuzgi bug'doyni sug'orish



Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida kuzgi bug'doydan yuqori hosil yetishtirish uchun tuproqdagi namlikni me'yorida saqlash kerak. Suvli sharoitda 1 kv.m. maydonda 550-600 donadan va undan ortiq mahsuldor poya shakllantirish mumkin. Bunday ko'rsatkichga o'simliklarni namlik va yetarli miqdordagi oziqa moddalar bilan ta'minlanishi asosida erishish mumkin. Har bir g'alla ekiladigan mintaqaning tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda bug'doy yetishtirish uchun 1 gektar yer maydoniga sarflanadigan suvning mavsumiy me'yor 3000-4500 m³. sug'orish me'yor 700-800 kub.m. ni tashkil etadi. Yer osti suvlarini joylanishiga nisbatan kuzgi bug'doyni mavsumiy sug'orish me'yor 2500-3000 m³ ham bo'lishi mumkin.

Kuzgi bug'doyda har bir oziqlantirishdan so'ng, albatta sug'orishni tashkil qilish kerak, g'allani har bir sug'orishda sharbat usulida sug'orishni tashkil etish yaxshi samara beradi.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda ekish muddati, ekish me'yor, mineral o'g'itlar, kasallik va zararkunandalarga, qurg'oqchilikka don to'kilishiga, sho'rga, yotib qolishga kuzgi yumshoq bug'doyning 50 ta va qattiq bug'doy 7 ta navi davlat reystriga kiritilib ekishga tavsiya etilgan.

O'zbekiston hududida ekilayotgan bug'doy navlari

1	Andijon-4	2004	Qimmatbaho
2	Bobur	2006	Qimmatbaho
3	Andijon-1	2006	Qimmatbaho
4	Mars-1	2006	Qimmatbaho
5	Denov-1	2007	Qimmatbaho
6	Saidaziz	2007	Qimmatbaho
7	Durdona	2007	Qimmatbaho
8	Qaxrabo	2007	Qimmatbaho
9	Omad	2008	Qimmatbaho
10	Matonat	2008	Qimmatbaho
11	Shodlik	2008	Qimmatbaho
12	Turkiston	2010	Qimmatbaho
13	Asr	2010	Qimmatbaho
14	Jayxun	2010	Qimmatbaho
15	Yaksart	2011	Qimmatbaho
16	Muftalo	2011	Qimmatbaho
17	Sadaf	2012	Qimmatbaho
18	Olmos	2012	Qimmatbaho
19	Zvezda	2013	Qimmatbaho
20	G'ozg'on	2013	Qimmatbaho
21	Elomon	2013	Qimmatbaho
22	Xazrati bashir	2013	Qimmatbaho
23	Start	2014	Qimmatbaho
24	Davr	2014	Qimmatbaho
25	Drujba	2017	Qimmatbaho
26	Yog'du	2018	Qimmatbaho



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "G'alla yetishtirish bo'yicha" qarori 2021-yil 6-mart
2. R.O.Oripov, N.X.Xalilov "O'simlikshunoslik" Toshkent 2007-yil
3. B.Abdubannonov, D.Abdurahimov, K.To'xtasinov "Bug'doyni sug'orishda innovatsion texnologiya" (Qishloq xo'jaligi jurnali) 18-bet 2020-yill
4. B.O.Beknazarov "O'simliklar fiziologiyasi" T, "Aloqachi", 2009-yil
5. A.Iminov, B.Xoliqov "Kuzgi bug'doyning hosildor navlari" (Qishloq xo'jaligi jurnali) 2014-yil

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.nature.uz
3. www.priroda.uz